НЕФОРМАЛЬНАЯ ЗАНЯТОСТЬ И ТЕНЕВАЯ СТОРОНА ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: АНАЛИЗ СТРУКТУРНЫХ ВЫЗОВОВ И ГОСУДАРСТВЕННЫХ МЕР ПО ЛЕГАЛИЗАЦИИ	782
Салахутдинова Юлдуз Голибовна	
OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	787
Xalikov Akmal Xolboyevich	
TIJORAT BANKLARDA MOLIYAVIY XIZMATLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ISTIQBOLLARI	793
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
RAQOBATBARDOSH MUHITDA INNOVATSION MENEDJMENTNI JORIY ETISH MEXANIZMLARI	799
Siddikov Askar Axrorovich	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA MARKETING STRATEGIYASINI BAHOLASHNING MEZON VA USULLARI	803
Isakova Naima Ikromjonovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	809
Abdullayeva Iroda Shuxrat qizi	
MULTIMODAL TRANSPORT OQIMLARI SHAROITIDA LOGISTIKA XABLAR JOYLASHUVINI TANLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	813
Umirzaqov Davlatjon Dolimjon o'g'li, Axmedova Muslima Djalolovna	
SUG'URTA ZAXIRALARINI MOLIYAVIY HOLAT TO'G'RISIDAGI HISOBOTDA AKS ETTIRISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH	818
Kodirkulov Oybek Turdiboyevich	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTNI BOSHQARISHNING XORIJIY Tajribalari	826
Nazarov Nazirjon Narzilloevich	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH VA ULARNI TAHLIL QILISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	830
Norqulova Qutlug'nigor Oloviddinovna	
XORIJIY DAVLATLAR Tajribasida boj-tarif siyosatini metodologik takomillashtirish MODELLARI	837
Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li	
MAMLAKATIMIZDA SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI (XORIJIY Tajriba asosida)	844
Bekmetov Xursandbek Ilxamovich	
SOTISH KANALLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA MARKETING TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH	850
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna	
MINTAQ IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XIZMATLAR SOHASINING O'RNI VA OBYEKTIV ZARURIYATI	857
Achilova Firuza Kurbanovna	
TIJORAT BANKLARINING RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH VA INVESTITSION KREDITLASH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH TAHLILI	862
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
XIZMATLAR SOHASIDA MIJOZLAR BILAN O'ZARO MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA BAHOLASH MEZONLARI	867
Ismailova Ma'mura Eldorovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA MANBALARI	874
Rustamova Dilsabaxon Djurayevna, Baratov Maxsudali Nazaraliyevich	
KORXONA FAOLIYATIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	881
Xashimova Dilyora Paxritdinovna	
TURIZM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI (DXSH) LOYIHALARINI BOSHQARISHDA ESG VA BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI (UNSDG) KONSEPSIYALARINING O'ZARO BOG'LIQLIGI	888
Masharipov Ravshan Rajabboyevich	



IQTISODIY, MOLIYAVIY, INVESTITSIYA VA SOLIQ SALOHİYATINING O'ZARO BOG'LIQLIGINING NAZARIY XUSUSIYATLARI.....	893
Jurayev Xusan Atamuratovich	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY RISKLAR BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI.....	900
Kadirov Abdumalik Matkarimovich, Abduqodirova Shahzoda Ilhomidin qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINI IQTISODIY-EKOLOGIK JIHATDAN RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	904
Koliyova Shoxista Qahramon qizi, Barnoqulova Marjona Otabek qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY AKTIVLAR PORTFELLARINI RISK-DAROMAD DILEMMASI ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH (G. MARKOVIS VA J. TOBINNING PORTFEL NAZARIYASI ASOSIDA)	909
Kurbanov Xayrilla	
MAMLAKATIMIZNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH	915
Mirzayev Rustam Ro'ziyevich	
РЫНОЧНЫЙ СПРОС И РАВНОВЕСИЕ	921
Камилова Наргиза Абдукажоровна, Ашуров Сардоржон Зафаржонович	
XORIJY DAVLATLARDA AUDITORLIK FAOLIYATINING O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYASI.....	925
Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li	
MARKETING-INTERNET XIZMATLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA SAVDO KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH	929
Ismoilov Lazizbek Rasuljon o'g'li	
KORXONADA INNOVATSION BOSHQARUV MEXANIZMLARINING MAVJUD MODELLARINING RETROSPEKTIVASI.....	934
Toxirova Gullola Mirkamolovna	
SANOATNI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA TARMOQ KORXONALARI FAOLIYATIGA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING ROLI	940
Ne'matov Shoxruxbek Ma'murjon o'g'li	
TIBBIY XIZMATLARNI MOLIYALASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI BAHOLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	946
Isroilov Bohodir Ibragimovich, Muhammadiev Ramz Zoirjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING ROLI	952
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ.....	957
Журахонов Шержахон Зафаржонович	
O'ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMI, RIVOJLANISHINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI	962
Raxmonov Azizjon Sadullayevich	
SOLIQQA TORTILADIGAN KO'CHMAS MULKLARNI BAHOLASH TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	970
Musalimov Shuxrat Isamuxamedovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH BILAN BOG'LIQ BO'LGAN MUAMMOLAR.....	974
Yuldashev Iskandar Abdurashidovich	
BARQAROR RIVOJLANISH KONSEPSIYASI VA UNING QURILISH SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK(DXSH)NI BOSHQARISHDAGI O'RNI	980
Rasulov Shuxrat G'ayratovich	
"YASHIL IQTISODIYOT", EKOLOGIK BARQARORLIK VA EKOLOGIK MADANIYAT	984
Ibragimova Saodat Abdumom'inovna	



EKOLOGIK TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING INSTITUTIONAL MEXANIZMLARI	990
Mirzayeva Nilufar Sabirjanovna	
IQTISODIY RIVOJLANISHDA INNOVATSIYALARNING NAZARIY ASOSLARI VA AHAMIYATI.....	995
Davlatova Ozoda Olmos qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'YI INTELLEKTNII JORIY ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1001
Suyunova Dilfuza Dilmurod qizi	
BOZORNI SEGMENTATSIYALASHDA MARKETING TADQIQOTLARINING ROLI	1006
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ilxomovna	



BOZORNI SEGMENTATSIYALASHDA MARKETING TADQIQOTLARINING ROLI

**Musayeva Shoira Azimovna**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori

**Usmonova Dilfuza Ilxomovna**

Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

E-mail: musayeva_shoira@mail.ru

ORCID: 0009-0000-9577-6976

Annotatsiya. Ushbu maqolada bozorni segmentatsiyalash jarayonida marketing tadqiqotlarining tutgan o'rni va ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish, maqsadli segmentlarni aniqlash hamda samarali marketing strategiyalarini shakllantirishda axborot va ma'lumotlarning roli tahlil qilingan. Shuningdek, bozorni segmentatsiyalashning asosiy mezonlari, zamonaviy yondashuvlari va ularning amaliy qo'llanilish jihatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: marketing tadqiqotlari, bozorni segmentatsiyalash, iste'molchi xulq-atvori, maqsadli segment, bozor tahlili, pozitsiyalash, raqobatbardoshlik, marketing strategiyasi, demografik mezonlar, ma'lumotlar tahlili.

Abstract. This article examines the role and significance of marketing research in the process of market segmentation. The study analyzes the importance of data in understanding consumer behavior, identifying target segments, and developing effective marketing strategies. In addition, the main criteria and modern approaches to market segmentation, as well as their practical applications, are reviewed.

Key words: marketing research, market segmentation, consumer behavior, target segment, market analysis, positioning, competitiveness, marketing strategy, demographic criteria, data analysis.

Аннотация. В данной статье раскрываются роль и значение маркетинговых исследований в процессе сегментации рынка. В исследовании проанализирована роль информации и данных в изучении потребительского поведения, определении целевых сегментов и формировании эффективных маркетинговых стратегий. Также рассмотрены основные критерии и современные подходы к сегментации рынка, а также особенности их практического применения.

Ключевые слова: маркетинговые исследования, сегментация рынка, поведение потребителей, целевой сегмент, анализ рынка, позиционирование, конкурентоспособность, маркетинговая стратегия, демографические критерии, анализ данных.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi va texnologik taraqqiyot sharoitida bozor subyektlari o'rtasidagi raqobat misli ko'rilmagan darajada keskinlashib bormoqda. Endilikda korxonalar uchun shunchaki mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish yetarli emas; muvaffaqiyatning asosiy garovi — iste'molchini chuqur tushunish va uning o'ziga xos ehtiyojlarini qondira olishdan iboratdir. Bozorning haddan tashqari



to'yinganligi hamda iste'molchilar tanlovining rang-barangligi "ommasiy marketing" (mass marketing) tushunchasini o'tmishda qoldirib, uning o'rniga "maqsadli marketing" (target marketing) tamoyillarini ilgari surdi. Ushbu jarayonning poydevori esa bozorni segmentatsiyalash hisoblanadi.

Bozorni segmentatsiyalash murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, u umumiy bozorni o'xshash ehtiyojlar, xususiyatlar yoki xulq-atvoriga ega bo'lgan iste'molchilarning alohida guruhlariga ajratishni nazarda tutadi. Biroq bozorni faqat nazariy guruhlariga ajratish korxonaga kutilgan natijani bermaydi. Aynan shu jihatda marketing tadqiqotlarining o'ni va ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi. Marketing tadqiqotlari segmentatsiyalash jarayonini ilmiy asoslangan ma'lumotlar bilan ta'minlovchi asosiy vosita hisoblanadi. Tadqiqotlarsiz amalga oshirilgan segmentatsiyalash korxonani noto'g'ri yo'nalishga boshlashi, resurslarning samarasiz sarflanishiga hamda pirovardida bozordagi mavqeining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Marketing tadqiqotlarining roli, avvalo, noaniqlik darajasini kamaytirishda namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar orqali korxona "Bizning mijozimiz kim?", "Ular qayerda yashaydi?", "Ularning xarid qilish motivatsiyasi nimadan iborat?" kabi fundamental savollarga asosli javob topadi. Bugungi kunda iste'molchilar xulq-atvori yuqori darajada o'zgaruvchan bo'lib, unga nafaqat iqtisodiy, balki psixologik, ijtimoiy va madaniy omillar ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillarni chuqur tahlil qilmasdan turib, bozorni samarali segmentlarga ajratish imkonsizdir.

Masalan, an'anaviy demografik ko'rsatkichlar (yosh, jins) hozirgi sharoitda yetarli bo'lmay qolmoqda; zamonaviy segmentatsiyalash esa turmush tarzi, qadriyatlar hamda raqamli izlar (digital footprint) kabi yanada nozik va murakkab ma'lumotlarga tayanmoqda. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, O'zbekiston iqtisodiyotining jahon bozoriga integratsiyalashuvi va xalqaro brendlarning kirib kelishi mahalliy korxonalardan marketing faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni talab qilmoqda. Marketing tadqiqotlari segmentatsiyalashning har bir bosqichida — ma'lumotlarni yig'ishdan tortib, maqsadli segmentni tanlash va pozitsiyalash strategiyasini ishlab chiqishgacha bo'lgan jarayonda yo'naltiruvchi mayoq vazifasini bajaradi. Tadqiqotlar natijasida olingan aniq raqamlar va chuqur tahlillar korxona rahbariyatiga tavakkalchilikni kamaytirgan holda asosli strategik qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHARHI

Marketing bo'yicha mavjud adabiyotlar tahlili marketingning zamonaviy tamoyillari, brendni targ'ib qilish usullari hamda bozorni segmentatsiyalash talablariga moslashuvchan yondashuvni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Marketing strategiyalari masalalariga oid tadqiqotlar bilan shug'ullangan mutaxassis R.G. Ibragimov o'z darsligida quyidagi fikrni ilgari suradi: "Marketing strategiyasi deganda ma'lum muddatga belgilangan korxonaning bozordagi xatti-harakatlari tamoyillarining modeli tushuniladi. Uning yordamida korxona o'z muvaffaqiyatini ta'minlashga intiladi". Marketing strategiyalarini rivojlantirish va ularni amaliyotda qo'llash masalalari bo'yicha ko'plab iqtisodchi olimlar izlanishlar olib borgan. Ular qatoriga F. Kotler, David Aaker, Clayton Christensen, Seth Godin, Kevin Keller, Byron Sharp, Jay Baer kabi taniqli olimlarni kiritish mumkin.

Mamlakatimizda ham qator yillar davomida marketing sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda marketing nazariyasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shgan olimlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Jumladan, R. Ibragimov, Yo. Abdullayev, A. Saliyev, M. Sharifxojayev, D. Rahimova, Sh. Ergashxojayev, Sh. Musayeva va boshqa olimlarning ilmiy ishlari alohida e'tiborga loyiqdir.

Bozorni segmentatsiyalash jarayonida marketing tadqiqotlarining roli faqat ma'lumotlar yig'ish bilan cheklanib qolmay, balki strategik qarorlar qabul qilishning asosiy manbai sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayonni uchta asosiy bosqichga ajratgan holda tahlil qilish mumkin: segmentlarni aniqlash, ularning jozibadorligini baholash va tanlangan segment doirasida mahsulotni pozitsiyalash. Har bir bosqich bevosita sifatli va miqdoriy marketing tadqiqotlari natijalariga tayanadi.

Birinchi bosqichda marketing tadqiqotlari bozorni mezonlar asosida ajratish uchun zarur bo'lgan indikatorlarni shakllantirishga xizmat qiladi. An'anaviy yondashuvda segmentatsiyalash asosan demografik va geografik omillarga tayanilgan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotlar psixografik va xulq-atvor omillariga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda. Xususan, iste'molchilarning turmush tarzi, ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi, brendlarga bo'lgan hissiy munosabati va xarid qilish motivatsiyasi so'rovnomalari, fokus-guruhlar hamda kuzatuv usullari orqali o'rganiladi. Tadqiqotlar natijasida olingan ma'lumotlar korxonaga bozorni "sovuq" raqamlar majmuasi sifatida emas, balki aniq va tushunarli iste'molchi guruhlariga yig'indisi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Ikkinchi bosqich — maqsadli segmentni tanlash (targeting) jarayonida marketing tadqiqotlarining roli asosan tahliliy xarakter kasb etadi. Bu bosqichda aniqlangan har bir segmentning iqtisodiy samaradorligi baholanadi. Tadqiqotlar segmentning hajmi (iste'molchilar soni), sig'imi (sotish hajmi prognozi), o'sish sur'atlari hamda raqobat darajasini aniqlash imkonini beradi. Agar marketing tadqiqotlari bozorning muayyan segmenti yuqori jozibadorlikka ega ekanligini, biroq unda raqobat darajasi haddan tashqari yuqori ekanligini ko'rsatsa, korxona



resurslarini raqobat nisbatan past bo'lgan "nisha" segmentlarga yo'naltirishi mumkin. Bu esa korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi bosqich — pozitsiyalash jarayonida marketing tadqiqotlari iste'molchi ongida mahsulotning qanday o'rin egallashini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqotlar asosida korxona o'z mahsulotining raqobatchilarga nisbatan ustun jihatlarini, ya'ni noyob savdo taklifini (USP — Unique Selling Proposition) belgilaydi. Iste'molchining aynan ushbu brendni tanlashiga sabab bo'ladigan omillarni aniqlashda marketing tadqiqotlari "persektiv xaritalar" (perceptual maps) tuzishga yordam beradi. Ushbu xaritalar mahsulotning narx, sifat va boshqa muhim ko'rsatkichlar bo'yicha raqobatchilarga nisbatan bozordagi o'rnini vizual tarzda aks ettiradi.

Umuman olganda, marketing tadqiqotlari bozorni segmentatsiyalash jarayonining har bir bo'g'inida o'ziga xos "filtr" vazifasini bajaradi. Ular noto'g'ri taxminlarni bartaraf etib, faqat ishonchli va tasdiqlangan dalillar asosida qarorlar qabul qilishga imkon yaratadi. To'g'ri tashkil etilgan marketing tadqiqotlari korxonaga nafaqat joriy holatni chuqur tushunish, balki iste'molchilarning kelgusidagi ehtiyoj va talablarini oldindan bashorat qilish imkonini ham beradi.

TADQIQOD METADOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli tahlil, qiyosiy va mantiqiy tahlil, shuningdek, sifat va miqdoriy tadqiqot usullari tanlab olindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi marketing tadqiqotlarining bozorni segmentatsiyalash samaradorligiga ta'sirini ilmiy jihatdan asoslash hamda uning amaliy mexanizmlarini ko'rsatib berishdan iborat. Shundan kelib chiqib, tadqiqot jarayonida quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

1. Ma'lumotlarni yig'ish usullari;
2. Segmentatsiyalash modellari;
3. Tahlil va sintez;
4. Qiyosiy tahlil.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozorni segmentatsiyalashda marketing tadqiqotlarining samaradorligini baholash maqsadida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy bozor konyunkturasi endilikda standart mahsulotlar bilan cheklanib qolish imkonini bermaydi. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida segmentatsiyalash jarayonining korxona iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri hamda iste'molchilar xatti-harakatidagi o'zgarishlar bo'yicha bir qator muhim natijalar olindi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda "an'anaviy segmentatsiyalash" (faqat yosh va daromadga asoslangan) o'zining 40 % dan ortiq aniqlik darajasini yo'qotgan. Marketing tadqiqotlari tahlili bir xil daromad darajasiga ega bo'lgan iste'molchilarning xarid qilish motivlari mutlaqo turlicha bo'lishi mumkinligini tasdiqladi. Jumladan, "avlodlar nazariyasi" (Z va Alpha avlodlari) asosida o'tkazilgan so'rovnomal natijasiga ko'ra, yosh iste'molchilar uchun mahsulotning funksional xususiyatlaridan ko'ra, brendning ekologik mas'uliyati va ijtimoiy nufuzi (social proof) birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ushbu holat marketing tadqiqotlarisiz korxona reklama faoliyatini noto'g'ri auditoriyaga yo'naltirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, marketing tadqiqotlariga asoslangan segmentatsiyalash korxonalarning reklama budjetini o'rtacha 25–30 % ga tejash imkonini beradi. Bu holat quyidagi mantiqiy bog'liqlik bilan izohlanadi: korxona barcha iste'molchilarga (mass marketing) murojaat qilish o'rniga, faqat "yuqori konversiyali" segmentlarga e'tibor qaratadi. Tadqiqot davomida aniqlangan yuqori "LTV" (Lifetime Value — mijozning butun hayoti davomidagi qiymati) ko'rsatkichiga ega segmentlar tahlili shuni ko'rsatdiki, eng sodiq mijozlar guruhi umumiy daromadning 70 % ini shakllantiradi, vaholanki ular bozorning atigi 20 % ini tashkil etishi mumkin. Bu holat Pareto tamoyilining segmentatsiyalash jarayonidagi amaliy tasdig'idir.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, marketing tadqiqotlari orqali "to'yingan" bozorlarga nisbatan "bo'sh nishalar"ni (unmet needs) aniqlash osonroq kechadi. Tadqiqot doirasida o'rganilgan mahalliy ishlab chiqarish korxonalaridan biri misolida ko'rilganda, umumiy oziq-ovqat bozorini segmentatsiyalash orqali "sog'lom turmush tarzi uchun mahsulotlar" (health and wellness) segmentining jadal o'sayotgani aniqlandi. Mazkur segmentga maqsadli kirib borish natijasida korxona bir yil ichida bozordagi ulushini 12 % ga oshirishga erishdi. Ushbu natija marketing tadqiqotlarining strategik yo'nalishni belgilashdagi muhim rolini ko'rsatadi.

Marketing tadqiqotlarining "pozitsiyalash" bosqichidagi natijalari shuni ko'rsatdiki, iste'molchilar ongida mahsulotning o'rne ko'pincha ishlab chiqaruvchi tomonidan rejalashtirilgan tasavvurdan farq qiladi. Tahlil jarayonida o'tkazilgan "brand mapping" natijalariga ko'ra, iste'molchilarning 60 % dan ortig'i mahsulotni uning sifati uchun emas, balki "qulaylik" va "ishonchlilik" kabi emotsional omillar asosida tanlashini bildirgan. Bu holat korxonalar uchun marketing kommunikatsiyalarida texnik xususiyatlardan ko'ra hissiy manfaatlarga urg'u berish zarurligini ko'rsatadi.



Tadqiqot natijalari umumlashtirilganda quyidagi xulosalarga kelindi: marketing tadqiqotlari segmentatsiyalash jarayonida faqat “ko‘makchi” emas, balki “boshqaruvchi” funksiyani bajaradi. To‘g‘ri tashkil etilgan tahlil:

- mijozlar segmentlarining real ehtiyojlarini aniqlab beradi;
- raqobat muhitidagi zaif nuqtalarni ko‘rsatadi;
- mahsulotni ishlab chiqishdan tortib, sotuvdan keyingi xizmatlarga bo‘lgan jarayonlarni shaxsiylashtirishga (personalization) yordam beradi.

Shunday qilib, segmentatsiyalashda marketing tadqiqotlarining roli korxonaning barqaror rivojlanishini ta‘minlash va dinamik o‘zgaruvchan bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

“PRO-MILK” MCHJ bozorda o‘z ulushini oshirish maqsadida marketing tadqiqotini o‘tkazdi. Tadqiqotdan oldin korxona o‘z mahsulotlarini “hamma uchun” mo‘ljallangan deb hisoblab, ommaviy marketingdan foydalangan. Biroq raqobat kuchayishi natijasida sotuv hajmining pasayishi kuzatildi.

Tadqiqot doirasida 1 000 nafar iste‘molchi o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi va klaster tahlili asosida bozor uchta asosiy segmentga ajratildi:

- Tejamkor iste‘molchilar (45 %) — ular uchun asosiy mezon narx va mahsulot hajmi bo‘lib, asosan 1 litrli oddiy qadoqlangan sut mahsulotlarini afzal ko‘rishadi;
- “Sog‘lom turmush tarzi tarafdorlari” (25 %) — mahsulot tarkibi, yog‘lilik darajasi (past yog‘li) va shakar mavjud emasligi muhim, narx ikkinchi darajali omil hisoblanadi;
- “Premium / sifat ixlosmandlari” (30 %) — eko-qadoqlash (shisha idishlar), brend nufuzi va mahsulotning ta‘m xususiyatlariga katta e‘tibor qaratishadi.

Strategik natijalar va samaradorlik. Tadqiqot natijalariga ko‘ra “PRO-MILK” MCHJ o‘z marketing strategiyasini qayta ko‘rib chiqdi. Avval faqat bitta turdagi sut mahsulotini ishlab chiqargan bo‘lsa, endilikda har bir segment uchun alohida yondashuv ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval. Bozor segmentlari kesimida mahsulot takliflari va erishilgan natijalar

Segment	Taklif qilingan mahsulot	Natija
Tejamkorlar	900 ml hajmdagi yumshoq paket	Sotuv hajmi barqarorlashdi
Sog‘lom turmush	“Fit-Milk” (0,5 % yog‘li, kalsiy bilan boyitilgan)	Ushbu segmentda sotuv 40 % ga oshdi
Premium	Shisha idishdagi “Natural Selection” suti	Brend nufuzi va foyda marjasi oshdi

Iqtisodiy samaradorlik tahlili. Tadqiqotdan so‘ng “PRO-MILK” MCHJning umumiy ko‘rsatkichlari quyidagicha o‘zgardi:

- sotuvdan tushgan daromad bir yil ichida 22 % ga oshdi;
- marketing xarajatlari samaradorligi oshdi: reklama faqat maqsadli auditoriyaga (masalan, “Fit-Milk” mahsuloti uchun fitnes markazlarida) yo‘naltirilgani sababli, har bir jalb qilingan mijozning o‘rtacha qiymati 15 % ga kamaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, korxona umumiy bozordagi ulushini 8 % dan 11,5 % gacha kengaytirishga erishdi.

“PRO-MILK” MCHJ misolida o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, marketing tadqiqotlarisiz bozorni chuqur tushunish va iste‘molchiga mos mahsulotni taklif qilish imkonsizdir. Bozorni segmentatsiyalash korxonaga o‘z resurslarini aniq yo‘naltirilgan (targeted) tarzda taqsimlash hamda umumiy raqobat muhitida barqaror ustunlikka erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kotler, F. Marketing Management : trans. from English / F. Kotler, K. L. Keller. — 15th ed. — M.: Williams, 2016. — 816 p.
2. Winston, W. Marketing Analytics: Data-Driven Techniques with Microsoft Excel. John Wiley & Sons, Inc., Indianapolis, Indiana, 2014. ISBN: 978-1-118-37343-9.
3. Utkina, E. A. Financial and Management Analysis / E. A. Utkina, A. D. Sheremet. — 8th ed., revised and enlarged. — M.: Infra-M, 2015. — 320 p.
4. Golubkov, E. P. Marketing: Strategy, Plans, Structures. — M.: Economica, 2017. — 352 p.
5. Sokolov, A. V. Analysis of the Marketing Activities of the Enterprise. — St. Petersburg: Piter, 2019. — 240 p.
6. Musaeva, Sh. A. Integrated Marketing Communications. Study Guide. — Samarkand: Makhorat Publishing House, 2022.
7. Musaeva, Sh. A. Marketing Research. Textbook. — Samarkand: STAR-SEL LLC, Publishing and Creative Department, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
